

**Aleksandr Makedonskiy Ijtimoiy-iqtisodiy hayoti**

***Abatov Ilxam Baxitovich***

***Urganch Davlat Univrsiteti***

***Ijtimoiy Iqtisodiy fanlar fakulteti***

***Tarix(mintaqalar va yo'nalishlar bo'yincha)***

***yo'nalishi 1-bosqich talabasi***

***Annotatsiya:*** Ushbu maqola Aleksandr Makedonskiyning ijtimoiy- iqtisodiy hayoti haqida o'rGANADI. Uning hayot ta'rzi va sirli o'limi haqida, Makedoniyalik Aleksandr da'vrida asos solingan shaharlari, tuzgan imperiyasi , bosib olingan hududlarda o'zi o'rnatgan siyosati haqida ma'lumot beradi.

***Kalit so'zları:*** Filipp II, Iskandar, Fiva shahri, Ptolomey, Aristotel, Spitamen qo'zg'oloni, Transaksoniya,

***Аннотация:*** статья посвящена социально-экономической жизни Александра Македонского узнает о. В нем рассказывается о его образе жизни и загадочней сметри, городах, которые о основал в эпоху Александр Македонского построенной им империи и политике которую он установил на завоеванных территориях.

***Ключевые слова :*** Филипп II, Искандар, Фива город, Птоломей, Аристотел, Спитамен загастовка, Трансаксония.

***Abstract:*** This article explores the socio-economic life of Alexander the great. It tells about his lifestyle and mysterious death, the cities he founded in the era of Alexander the great, the empire he built, and the policies he established in the conquered territories.

***Keywords:*** Filipp II, Iskandar, the city of Fiva, Ptolomey, Aristotle, Spitamen uprising, Transaksoniya.

Filipp II Eron bilan urushga jiddiy tayyorgarlik ko'ra boshladi, ammo Sharqqa yurish g'oyasini amalga oshirish Filipp II ga nasib etmadni. Bu goyani uning o'g'li Iskandar amalga oshirdi. Iskandar taxt vorisi va oqsuyak oilaning farzandiga

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

munosib bolgan ta'lim-tarbiyani oldi . O'sha davrda hali mashhur bo'limgan faylasuf Aristotel(Arastu) uning o'qituvchi va tarbiyachilardan biri boldi. Filipp II o'g'lini davlat boshqaruv ishlariga asta-sekin torta boshladi. Iskandar mil. avv. 340-yilda Shimoliy Yunoniston tog'li hududlardagi qabilalardan birining qo'zg'olonini bostirib birinchi bor kuchli sarkarda ekanligini korsatdi. Mil. avv. 336-yil yozida Filipp II qizining to'yida oz qo'riqchisi tomonidan o'ldirildi. 20 yoshli Iskandar podsho bo'ldi. Filipp II ning o'limidan keyin foydalangan yunon shaharlari Fiva shahri boshchiligidagi Makedoniyaga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Yunonlar uchun kutilmagan holda Iskandar bu qo'zg'oltonni shafqatsiz bostirdi. Fiva shahri buzib tashlandi, uning tirik qolgan qo'zg'olonchi aholisi qul qilib sotib yubrildi. Ikki yildan keyin mil.avv.334-yilda nihoyatda puxta tayyorgarlikdan keyin yunon shaharlari piyodalari bilan kuchaytirilgan makedon qoshinlari Gellespont bog'ozidan o'tib Osiyo hududiga kirdilar. Urush e'lon qilish uchun bahona bo'lib , mil. avv. V asr o'rtalarida yunon-fors urushlari davrida yunon ibodatxonalarining forslar tomonidan oyoq-osti qilishi bo'ldi. Bu mafkuraviy shiordan Iskandar yunon-makedon kuchlarini birlashtirishda foydalandi. Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoga (mil.avv.356-323 yillar ) qadimgi dunyoning yirik lashkarboshi va davlat arboblaridan biri. U siyosatda o'ta ehtiyyotkor, o'ta ayyor va hushyor davlat arbobi edi. U yirik lashkarboshi sifatida antik davr harbiy sanatning rivojlanish tarixida katta iz qoldirdi. Jahongir yangi tipdagi otliq qoshin tuzdi, unda jangavor intizom tartib-qoidalarini ishlab chiqdi. U tezlik qa'tiylikni jangdagi g'alabani ta'minlaydigan omillardan deb tushundi. Mavjud imkoniyatlarni to'g'ri tahlil qilish , unga tog'ri baho bera bilish ,dushmani yaxshi o'rganish zarurligini jang qilishning asosi deb bildi. Zarur paytda u ehtiyyotkorlik chidam va matonat bilan ish tutdi. U hech qachon hushyorlikni o'zidan tark etmadni. Uning qo'lga kiritgan g'alabalarining boisi shundaki, u dushmanlarning bosh va zaif tomonlarini yaxshi o'rganardi. U intizomli muntazam qo'shin va jangavor qurollar bilan har qanday zaif dushmani ham, o'ta hushyorlik ayyorlik qa'ttiqko'llik va qa'tiyatlik bilan kuchli raqibni ham yengib keldi. Aleksandr Osiyoga 30 ming piyoda, 5 ming otliq askar bilan olib borgan. Kichik Osiyo qirg'oqlari bo'ylab, 150 ta kema kuzatib

borgan. Mil.avv. 334-330 yillar davomida Iskandar Eronning asosiy viloyatlarini bosib olgach, ozining bosqinchilik yurishlarini davom ettirish maqsadida miloddan avvalgi 329 yilning bahorida Hindikush tog’idan o’tib, qadimgi Baqtriya tuprog’iga kirib keldi. Grek manbalarida Orta O’siyodagi ikki daryo oralig’ini Transaksoniya deb atashadi. Bu paytda Baqtriya hukumdori (satrapi) ahomoniylar urug’idan bo’lgan Bess edi. Tarixchilardan Arrian va Kvint Kursiy Ruflarning xabar berishiga qaraganda, Iskandar va uning qoshinlari o’z vatandoshi sifatida xursandchilik bilan kutib olishga chiqqan begunoh branxidlarni qirib tashlaydi va ularning shahar va qishloqlarning kulini kokka sovuradi. Shundan keyin Aleksandr Ptolomey qo’shinlari bilan birlashadi. U asirga tushgan Bessning qulqo va burinini kesib, Ektatana shahriga, ya’ni Doro III ning qarindoshlari qo’liga topshirish uchun yuboradi. U yerda Bess vaxshiyona o’ldiriladi. Iskandar mil. avv. 329-yilda Amudaryodan o’tib O’rta Osiyoga kirdi, bu yerda u mahalliy aholining qattiq qarshiligiga uchradi. Spitamen boshiligidagi sak massagetlar uch yil davomida Iskandar qo’shinlariga qarshi turdilar. Noiloj qolgan Iskandar mahalliy zadagonlarni sovg’a-salom bilan o’zi tomoniga og’dirib olishga urindi, u Sog’d hokimi Oksiertni qizi Roksanaga uylandi. Aleksandr Baqtriya, Sug’diyona, va Ustrushonaning bir qismini istilo qilib, mil.avv. 327-yilda Hindistonga hujum boshlaydi, to’xtovsiz janglar va shaharlarni qamal qilish, notanish xavfli yurtlar va jiddiy sinovlar, yangi va yangi tog’lar bilan bepayon ketma-ket cho’llar hamda keng chuqur daryolar ularning joniga tegib, endi boshqa qiziqtirmasdi. Bu yurishdan so’ng yunonlarning Hindiston haqidagi tessavvurlari o’zgardi. Avvallari yunonlar Hindstonni afsonaviy mamlakat, fillari kabi qo’lga o’rgatish mumkin bo’lgan noyob jonivorlar, daraxtlarida jun talolar o’sadigan, shakar va bambuk esa bahaybat daraxtlarda terib olinadigan o’lka ko’rinishida tasavvur qilishar edi. Yunon-Makedon qo’shinlari O’rta Osiyo yerlarida shu qadar holdan toyib, o’zining jangavorlik qobiliyatini yo’qotdiki, buning oqibatida ular shimoliy Hind yerlariga arang kirib bordilar. Bu holatni tan olgan Iskandar tez orada Hindistondagi urush mavsumini tugatib, ortga, ikki daryo oralig’idagi Bobil shahriga qaytib ketishga buyruq beradi. Antik dunyo olimlarining yakdil ta’kidlashicha, Yunonlar podshosining bu buyrug’i ruhan

cho'kkан butun qo'shinda katta qoniqish bilan qarshi olingan ekan. Shunday qilib, butun yer yuzini egallab, dunyo hukmdori bo'lismiga da'vo qilgan Iskandarning sharqiy yurishlari oxir-oqibatda ko'zlangan yuksak natijalarsiz tugadi. Uning o'zi mil. avv. 323-yilda Bobilda hayotdan ko'z yumadi. Tarixchilar Makedoniyalik Aleksandr vafoti haqida ko'pgina fikrlar mavjud. U y'aniy miloddan avvalgi 323-yilda navbatdagi bo'sqinchilik yurishini rejalashtirgan vaqtida to'satdan kasallanib, 18 yoki 13-iyun kuni vafot etgan. Tarixchilar bezgak, pnevmoniya, leykemiya, G'arbiy Nil bezgagi kabi kasalliklar bo'lgan deb taxmin qilgan. Ayrim mutaxassislar ichkilikka berilib ketgani oqibatida vafot etgan desa, ayrimlari tasodifdan yoki qasddan zaharlangan bo'lishi mumkin deb taxmin qiligan.

**Xulossalar:** Aleksandr Makedonskiy o'z davrining kuchli hukmdori edi. Yosh bo'lishiga qaramay juda yirik imperiyaga asos soldi. Bu davlatning paydo bo'lishida otasining xizmatlari ham katta. Makedonskiy barchamizga ma'lumki yetuk sarkardalardan biri bo'lgan. Istilochilik yurishlari bilan birga uning yuritgan siyosatlari, islohatlari bilan mashhurdir. Shuni aytish joizki Aleksandr qobiliyatli mohir sarkarda bo'lishi bilan birga barcha hukmdorlarga xos hislatlari ya'ni jiddiy, berahimlik, ehtiyyatkorlik, ayyorlik, va shu kabilardir. U ijtimoiy-iqtisodiy siyosat hamda qo'shini takomillashtirish islohatlarini ham amalga oshirgan. Aleksandr turli tarix va madaniyatiga ega xalqlarning yetakchisi bo'lgan. Bosib olingan hududlarida mahalliy va yunon madaniyatlari an'analarining qo'shilishi yuz berdi. Hozirgi kunda tadqiqotchilar Aleksandr Makedonskiy haqida ko'plagan ma'lumotlar keltirib o'tmoqda.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1.Q.Usmon , M. Sadiqov , S.Burxnova Toshkent <IQTISOD-MOLIYA> 2006 . 60-61 betlar.
- 2.R.Rajabov “ QADIMGI DUNYO TARIXI “ Toshkent-2009. 287-288 betlar.
- 3.Sagdullayev. A . S . “ O'ZBEKİSTON TARIXI “ Toshkent <DONİSHMAND ZİYOSI > 2021 .
- 4.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000-2005-yillar.